

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

MIRZAYEVA GO‘ZAL QOBULJONOVNA

**O‘ZBEK VA TURK TILLARIDAGI TOVUSH O‘ZGARISHLARINING
NEYROLINGVISTIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
in Philological sciences**

Mirzayeva Go‘zal Qobuljonovna

О‘zbek va turk tillaridagi tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik xususiyatlari .. 3

Мирзаева Гузал Кобулжоновна

Нейролингвистические особенности изменений звуков в узбекском
и турецком языках 27

Mirzaeva Guzal Kobuljonovna

Neurolinguistic Features of Sound Changes in Uzbek and Turkish Languages ... 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 60

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

MIRZAYEVA GO‘ZAL QOBULJONOVNA

**O‘ZBEK VA TURK TILLARIDAGI TOVUSH O‘ZGARISHLARINING
NEYROLINGVISTIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3526 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xolmanova Zulxumor Turdiyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sobirov Abdulhay Shukirovich
filologiya fanlari doktori, professor

Bobokalonov Ramazon Rajabovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil _____ soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281–42–44; faks: (99871) 281– 42– 44, e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281– 42– 44; faks: (99871) 281– 42– 44).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “ _____ ” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “ _____ ” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh. S. Sirojiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, filol. f. d., akademik

Q. U. Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, filol. f. d., professor

N. Z. Normurodova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, filol. f. d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida fonetika masalalari, nutq tovushlarining diaxron va sinxron o'zgarishlari qadimiy, o'z navbatida, zamonaviylik kasb etgan mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Hozirgacha tilshunoslikda fonetik hodisalar qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur paradigmada tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlarda fonetik sath birliklari, tilning ijtimoiy funksiyalarini ta'minlashdagi xususiyatlari, tovush va fonema munosabati, nutqning fonetik bo'linishi, fonetik birliklarning simvol sifatidagi belgilari yoritilgan. Nutq tovushlarining shakllanishi hamda taraqqiyoti til ontogenezini, til va tafakkur, til va nutq munosabatini aks ettiruvchi jarayonlar sifatida o'rganilgan. Bugungi kunga kelib fonetik sathni integratsiya asosida va tilni inson omili bilan aloqadorlikda o'rganish ehtiyojining yuzaga kelgani nutq tovushlarining xususiyatlari va o'zgarishlarini neyrolingvistik aspektda tadqiq qilishni taqozo qilmoqda.

Dunyo tilshunosligida fonetika masalalari muayyan tillar doirasida atroflicha tadqiq etilgan bo'lsa-da, qiyosiy va chog'ishtirma aspektdagi izlanishlar nisbatan kam miqdorni tashkil etadi. Fonetik jarayonlarni bevosita kuzatish murakkab hisoblanib, nutq tovushlari, fonetik hodisalar tadqiqi maxsus tajribalarga asoslanish, integratsion yondashuvni talab qiladi. Nutq tovushlarining taraqqiyoti, o'zaro munosabati, tovush o'zgarishlarini qardosh tillar qiyosi misolida tadqiq etish umumgenetik fonetika xususiyatlari bilan bir qatorda tilning xususiy taraqqiyoti, ekstralingvistik va intralingvistik omillar ta'siridagi belgilarini yoritish imkoniyatini yaratadi. Bugungi kunda nutq tovushlari tavsifiga, tovush o'zgarishlariga neyrolingvistik nuqtayi nazardan yondashish, fonetik jarayonlarning qonuniyat asosidagi va nutqiy vaziyatdagi ko'rinishlarini tadqiq etish fonetika nazariyasini mental belgilarga oid ma'lumotlar bilan boyitadi.

O'zbek tilshunosligida til sathlari, til birliklarining kommunikativ, emotsional-ekspressiv funksiyasiga doir masalalar antroposentrik yondashuv asosida tadqiq etilmoqda. O'zbek tilining qardosh tillarga munosabati, umumturkiy rivojlanish tamoyillari va o'ziga xos taraqqiyot qonuniyatlariga bag'ishlangan izlanishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlanganidek, "... mamlakatimiz "Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi"ga a'zo bo'ldi. Bu, o'z navbatida, nafaqat o'zaro iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishga, balki turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilining xalqaro maqomini yuksaltirishga xizmat qiladi"¹. Turkiy tillarning umumgenetik belgilari bilan birga o'ziga xos xususiyatlarga egaligi, dastavval, tovush tizimida o'z ifodasini topadi. O'zbek va turk tillarining fonetik tizimi, tovush o'zgarishlarining genetik, etnik, ekstralingvistik, intralingvistik omillari hamda qonuniyatlarini ochib berishda neyrolingvistik aspektdagi tadqiqotlar muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosim"da so'zlagan nutqi // Xalq so'zi. – №86. 2019-yil 21-oktabr. – Toshkent, 2019. – B. 1–2.

konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2025-yil 29-dekabrda PF-390-son “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-308-son “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Turkiy tillarning fonetik tizimi, tovush o‘zgarishlari umumturkiy manbalarda, lug‘atlarda o‘z ifodasini topgan. Jumladan, Mahmud Koshg‘ariy, E.V.Sevortyan asarlarida qiyosiy fonetikaga oid muhim fikrlar qayd etilgan². O‘zbek tilshunosligida fonetik sath masalalari A.G‘ulomov, H.Ne‘matov, H.Abdurahmonov, R.Reshetov, A.Nurmonov, M.Mirtojiyev, A.Abdiazizov, H.Jamolxonov, J.Mamatov, S.Jalilov, I.Azimov, B.Mengliyev va J.Xudoyberdiyev kabi olimlarning izlanishlarida aks etgan³. Fonetik birliklar integrativ yondashuv asosida ham o‘rganilgan. Xususan, S.Otamirzayeva fonetika va tibbiyot sohalarini uzviy aloqadorlikda tahlil etgan⁴. Nutq mexanizmi, fonetik tizim, tovush o‘zlashtirish masalasi, tovush o‘zgarishlarining psixolingvistik, neyrolingvistik xususiyatlari bolalar nutqi asosida tadqiq etilgan. O‘zbek bolalar nutqidagi tovush o‘zgarishlari lingvistik jihatdan N.Sayidiraximova va M.Qurbonovalar tomonidan, klinik jihatdan esa

² Севортян Э.В. Фонетика турецкого литературного языка. – М, 1955. – 44 с.

³ Ғулломов А. Ўзбек тилида ургу. – Тошкент: САГУ, 1947. – 262 б.; Решетов В. В. Узбекский язык. Введение. Фонетика. – Ташкент, 1959. – 359 с.; Абдурахмонов Х. Ўзбек фонетикаси тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1963. – №2. – Б. 5–10; Нурмонов А. Н. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 160 б.; шу муаллиф. Ўзбек тилининг фонетик ўзгаришларида экономия принциплари. Филол. фан. номз.... дисс. – Тошкент, 1973. – 132 б.; шу муаллиф. Профессор Миразиз Миртожиев – фонетист. – Тошкент: Университет, 2007. – 96 б.; Миртожиев М. М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Университет, 1998. – 90 б.; Неъматов Х. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 90 б.; Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент, 1992. – 136 б.; Жамолхонов Х. А. Фонетика, фонология ва орфоэпия. Маърузалар матни. – Тошкент: ТДПУ босмахонаси, 1999. – 246 б.; шу муаллиф. Фонетика. Маърузалар матни. – Тошкент: ТДПУ босмахонаси, 1999. – 120 б.; Маматов Ж. Ўзбек тилида редукция. Филол. фан. номз.... дисс. – Тошкент, 2009. – 115 б.; Jalilov S. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (fonetika va fonologiya). – Nukus, 2011. – 136 б.; Azimov I., Mengliyev B. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(7). July, 2023. – Pp. 152–165; Xudoyberdiyev J. O‘zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi. Monografiya. – Toshkent, 2024. – 324 б.

⁴ Отамирзаева С. Фонетика медицина хизматида. – Тошкент, 1990. – 75 б.

D.Madazizova tomonidan o‘rganilgan⁵. O‘zbek tilshunosligida so‘nggi yillarda neyrolingvistika yo‘nalishiga bo‘lgan qiziqish va ilmiy e‘tibor sezilarli darajada ortdi. I.Azimova tomonidan olib borilgan nutqning psixolingvistik tavsifiga oid tadqiqot, o‘zbek tilidagi agrammatik spontan nutq xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan izlanishlar neyrolingvistika va afaziologiya sohalari rivojida alohida ahamiyatga ega⁶. R.Sayfullayeva va R.Bobokalonovning neyropsixolingvistik sohasida olib borgan tadqiqotlari o‘zbek neyropsixolingvistikasining shakllanishi va rivojlanishiga muhim hissa bo‘lib qo‘shildi⁷. Keyingi yillarda neyrolingvistika, neyropsixolingvistik yo‘nalishidagi masalalar tadqiqining keng yoyilishi soha taraqqiyotini ta‘minlashga xizmat qiladi⁸.

Turk tilidagi fonetik tizim, tovush o‘zgarishlari ustida bir qator olimlar izlanish olib borganlar⁹. Turk bolalar nutqidagi tovushlar talaffuzi ham klinik, ham lingvistik jihatdan atroflicha tadqiq qilinga¹⁰. Turk tilshunosligida neyrolingvistika

⁵ Сайидирахимова Н. Болалар нутқининг фонетик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Фан, 2001. – №2. – Б. 76–77; шу муаллиф. Мактабгача ёшдаги ўзбек болалар нутқининг лингвистик хусусиятлари. Филол. фан. номз... дисс. – Фарғона, 2004. – 132 б.; Лутфуллаева Д., М. Курбонова. Болалар нутқига хос дейктик бирликларнинг фонопрагматик таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – №3. – В. 22–26; Курбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 54 б.; Madazizova D.R. Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari. – Тошкент, 2018. – 374 б.

⁶ Azimova I. Afaziya – tilshunoslikning obyekt sifatida. Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2013. – В. 40 - 44; shu muallif. O‘zbek tilidagi agrammatik spontan nutqda otlarning ifodalanishi // Til va adabiyot ta‘limi. – Toshkent, 2014. – № 9. – В. 38 - 41; shu muallif. Agrammatik spontan nutqqa xos ayrim jihatlar // Lingvist V. – Toshkent, 2014. – Б. 94–98.

⁷ Sayfullayeva R.R. Bobokalonov R.R. Neyropsixolingvistik: lingvistik shaxs va xarizmalı inson. Monografiya. – Buxoro: GlobeEdit, 2023. – 149 б.; Bobokalonov R.R. Nutqiy hosila, semiotik belgi, diskurs va neyropsixolingvistik holat. Monografiya. – Buxoro, 2023. – 221 б.; shu muallif. Tibbiyot va neyrolingvistika. Monografiya. – Buxoro, 2022. – 124 б.; shu muallif. Neyropsixolingvistik: xarizmalı shaxs qobiliyati. – Toshkent – Buxoro, 2024. – 224 б.; Sayfullayeva R.R., Bobokalonov R.R., Neyropsixolingvistik. Darslik. – Buxoro, 2025. – 287 б.

⁸ “Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va neyropsixolingvistik muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Farg‘ona: FarDU, 2024. – 488 б.

⁹ Bergstrasser G. Türk Fonetigi. Çev. M. Şükrü Akkaya. – İstanbul, 1936. – 29 s.; Özden R. Tarihsel Bakımdan Öztürkçe ve Yabancı Sözcüklerin Fonetik Ayraçları. – İstanbul, 1938. – 21 s.; Özdem R. Tarihsel bakımdan öztürkçe ve yabancı sözlerin fonetik ayraçları. I. – İstanbul: Universitet yayınlari, 1939. – 21s.; Çağlayan F. Metathese // Türk Dili Araştırmaları Yıllığı – Belleten (TD). Cilt IV, Sayı 43. – Ankara, 1955. – S. 145–152.; Caferoğlu Ahmet. Anadolu ağızlarında iç ses ünsüz benzeşmesi // Türk Dili Araştırmaları Yıllığı – Belleten (TDAY-B), 1958. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 1988. – S. 1–16.; Hasan E. -MM > -MB dissimilasyonu // Türk Dili Araştırmaları Yıllığı – Belleten (TDAY-B), 1959. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 1988. – S. 89–94.; Hatiboğlu Vecihe. Türk Kelimelerinin Ön Sesleri, AÜ DTCF Yay. – Ankara 1961; Doğan A. (Haz. Atabay, N., Özel, S., Çam, A., Pıralı, N.). Türkiye Türkçesi Gelişmeli Sesbilimi. TDK Yay. – Ankara, 1978; Özgül M. Türkçe’de Ünlülerin Üç Boyutu-Boyutların İşlevleri. TD. – S. 38, TDK Yay. – Ankara, 1978; Gemalmaz E. Türkçenin Fonemler Düzeni ve Bu Fonemler Düzeninin Çalışması // Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Araştırma Dergisi. – Ankara, 1980; İclâl E. Türkiye Türkçesinin Görevsel Sesbilimi, Engin Yayınları. – Ankara, 1989; Topbaş S., Kopkallı H. Sesbilim ve Sesbilgisi Terimleri Üzerine // Dilbilim Araştırmaları, Hitit Yay. – Ankara, 1994. – S. 310; Çağırın Önder. Türkiye Türkçesi Ağızlarında Ünsüz Göçüşmelerinin Kuruluş Sistemi. III. UTDK, TDK Yay. – Ankara, 1999; Brendemoen Bernt. Anadolu Ağızlarındaki Ünlü Kalınlaşma ve İncelme Olaylarına Yeni Bir Bakış. IV. UTDK. – İzmir, 2000; Volkan E. Anadolu Ağızlarındaki Ünlüler ve Allafonları. IV. UTDK. – İzmir, 2000; Demircan Ömer. Türkçenin Ezgisi, Yıldız Teknik Üniv. Yay. – İstanbul, 2001; shu muallif. Türkçenin ses dizimi. – İstanbul, 2001; Erdoğan B. Doğu Kökenli Kelimelerdeki Kelime Sonu (b,c,d,g) Ünsüzlerinin Türkiye Türkçesinde Ötümsüzleşme Meselesi // Türkbilig. – Ankara, 2001. – № 2; Türkçe Asıllı Kelimelerde Son Ses Ç, K, P, T Ünsüzlerinin Ötümlüleşme veya Ötümsüz Kalma Sorunu. TD. – S. 605, Mayıs 2002; Demirezen Mehmet. Çağdaş Türkçe’nin / f / ve / v / Sesbirimlerinin Gelişimi ve Bazı Sorunlar. V. UTDK I. – Ankara, 2004.

¹⁰ Seyhun Topbaş. Konuşma Sorunlarında Sesbilgisel Yaklaşım // Anadolu Üniversitesi Eğitim Fakültesi Dergisi, 1992; Seyhun Topbaş. Dil ve Konuşma Sorunlu Çocukların Sesbilgisel Çözümleme Yöntemi ile Değerlendirilmesi

va afaziologiya bo'yicha ko'plab tadqiqot va tajribalar olib borilgan, afaziyaga chalingan bemorlar nutqidagi tovush o'zgarishlari monografik jihatdan tahlil etilgan¹¹. Shu bilan birga, turk tilining fonetik tizimi va undagi tovush o'zgarishlari qiyosiy aspektda tadqiq qilingan. Biroq o'zbek tilidagi fonetik o'zgarishlar boshqa tillar bilan qiyosiy aspektda, neyrolingvistik xususiyatlariga ko'ra tadqiq etilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Turkiy tillar taraqqiyoti va zamonaviy yo'nalishlari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va turk tillaridagi tovush o'zgarishlarining miya funksiyalariga aloqador belgilarini umumiy fonetik qonuniyatlar va til o'zlashtirish omillari negizida asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek va turk tillarining fonetik tizimi, me'yoriy tovush o'zgarishlarini tahlil qilish, umumiy va farqli xususiyatlarini tavsiflash;

normal va anormal tovush o'zgarishlarini o'zbek va turk bolalari nutqi asosida neyrolingvistik aspektda ochib berish;

anormal tovush o'zgarishlarining o'zbek va turk tillariga xos o'xshash hamda farqli belgilarini ajratish;

o'zbek va turk tillaridagi normal va anormal tovush o'zgarishlari munosabatini ilmiy asoslash.

ve Konuşma Örüntülerindeki Sesbilgisel Özelliklerin Betimlenmesi. Basılmamış Doktora Tezi. Anadolu Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. – Eskişehir, 1994; Selda Öztunç, Okuma Kavramları Testinin Türk Çocuklarına Uyarlanması, Basılmamış Yüksek Lisans Tezi, Marmara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Sınıf Öğretmenliği Ana Bilim Dalı. – İstanbul, 1994; Ali Osman Özcan. İlk Okuma Yazma Öğretiminde Rol Oynayan Psikolojik Faktörler / Hacettepe Üniversitesi II. Eğitim Bilimleri Sempozyumu Bildirileri. – Ankara, 1995; Aktan E. Çocuğun Dil Gelişiminde Fonolojik duyarlılığın (Sesbirim duyarlılığı) Karşılaştırılmalı olarak incelenmesi (Yüksek Lisans Tezi). – İstanbul, 1996; Ferah A. İlk Okuma ve Yazma Öğrenmede Görsel Algı ve Zekânın Yeri. Basılmamış Yüksek Lisans Tezi. Marmara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. – İstanbul, 1996; Özcan A.O. İlk Okuma Yazma ve Hafıza // Bilgi ve Toplum Dergisi, 2, 1999; Ferah A. "İlk Okuma-Yazmada Ses Algısı // Çağdaş Eğitim Dergisi, 2001; Pınar Ege. Türkçede Fonemlerin Edinimi / 2. Ulusal Dil ve Konuşma Bozuklukları Kongresi Bildirileri, Kök Yayıncılık. – Ankara, 2005; Canan Çimen vd. Şifrelerin Matematiği: Kriptografi, ODTÜ Yayıncılık. – Ankara, 2008; Rod Plotnik. Psikolojiye. Giriş. çev. Tamer Geniş, Kaknüs Yayınları. – İstanbul, 2009; Ulusoy S., Kuruoğlu G. Türk afazili hastaların nesne ve eylem adlandırma becerilerinin dilbilim açısından incelenmesi, International Journal of Social Science, vol.6, no.1, 2013. – S. 1011–1031; Kuruoğlu G., Özcan A. Afazili hastaların konuşmalarında gözlemlenen perseverasyonların incelenmesi: Türk afazili hastalar üzerinde yapılmış deneysel bir çalışma, The Journal of Academic Social Science Studies, vol.6, no.6, 2013. – S. 805–818; Osman A., Özcan A. F. Türk Çocuklarının Ses Gelişim Özellikleri ve İlk Okuma Yazma Öğrenme, İGÜSBD, Cilt: 1, Sayı: 2, Ekim / October, 2014; Ekinci D. İlk Dil Edinimi: Çocuk Dili ve Gelişimi. Yüksek Lisans Tezi. – Diyarbakır, 2019; shu muallif. Çocuk ve Ergen Psikiyatrisi Uzmanı // <https://www.bebeko.com.tr/blog/cocuklarda-artikulasyon-bozuklugu-konusma-bozuklugu-1341>.

¹¹ Baykal N. Sensör ve motor afazililer tarafından Türkçe'deki fonemlerin ayırte edilmesi. Odyoloji programı bilim uzmanlığı tezi. – Ankara, 1988; Tanrıdağ O. Afazi. Gata Basımevi, 1993. Ergenç İ. Dilin beyindeki organizasyonu ve konuşmanın gerçekleşmesi. Multidisipliner yaklaşımla beyin ve kognisyon, 2000; Maviş İ. Sözü bittiği yer... Afazi. Anadolu Üniversitesi, Eskişehir, 2004; Ergenç İ. Dilin beyindeki gerçekleşimi ve konuşma eylemi. Kognitif Neurobilimler, 2008; Özçelik Ö. Nagai M. Possible syntactic subject positions in Turkish: Evidence from phonology. Paper presented at the Proceedings of the 6th Workshop on Altaic Formal Linguistics (WAFL 6), Cambridge, MA: MIT Working Papers in Linguistics, 2010; Zarzavatçioğlu E. Afazioloji ve dilbilim: Afazi kaynaklı dilsel sorunların çözümü için dilbilimsel yöntemler. Doktora tezi, T.C. Sakarya Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2023.

Tadqiqot obyektini kichik yoshdagi bolalar va afaziyaga uchragan bemorlar nutqidagi tovush o'zgarishlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini o'zbek va turk tillaridagi me'yoriy va anormal tovush o'zgarishlari, lingvistik qonuniyat, tashqi ta'sir va shaxs idroki, tafakkuri bilan bog'liq masalalar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyoslash, tavsiflash, analiz, sintez, modellashtirish metodlari, konseptual tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek va turk tillaridagi tovush o'zgarishlarining miya faoliyati bilan aloqadorligi Luriyaning funksional tizim nazariyasi, Leveltning nutq yaratish modeli hamda generativ fonologiya tamoyillari asosida ilk bor neyrolingvistik aspektda dalillangan, tovush o'zgarishlari fonologik kodlash va artikulyatsion-motor realizatsiya bosqichlari integratsiyasida yuzaga keluvchi jarayon sifatida ilmiy asoslangan;

o'zbek tilshunosligida ilk bor tovush o'zgarishlarining neyrolingvistik xususiyatlariga qiyosiy aspektda yondashilib, o'zbek va turk tillarining fonetik tizimi, me'yoriy tovush o'zgarishlari, umumgenetik, etnik, ekstralingvistik, intralingvistik, mental omillar bilan belgilanuvchi o'xshash hamda farqli belgilari ochib berilgan;

afaziyaga chalingan o'zbek va turk bemorlari nutqidagi tovush o'zgarishlarining neyrolingvistik asoslari aniqlangan, me'yoriy va anormal tovush o'zgarishlarining munosabati tahlil qilinib, umumiy va farqli belgilarining konseptual tahlili amalga oshirilgan.

o'zbek va turk bolalar nutqidagi me'yoriy va anormal tovush o'zgarishlarining neyrolingvistik belgilari ajratilib, fiziologik-nevrologik omillari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zbek tilshunosligida qayd etilmagan neyrolingvistikaga oid izlanishlardagi tahlil yo'nalishlari, yondashuvlar tizimlashtirilib, ilmiy jihatdan tavsiflangan;

o'zbek va turk tillaridagi fonetik sath, tovush, alifbo tizimi, yozuv, singarmonizm masalalari, tovush o'zgarishlari tizimlashtirilib, umumiy va farqli belgilari ajratilgan;

me'yoriy holatdagi tovush o'zgarishlari tavsiflanib, neyrolingvistik xususiyatlari ko'rsatib berilgan; anormal holatdagi tovush o'zgarishlarining xususiyatlari tavsiflangan;

tovush o'zgarishlarining neyrolingvistik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar, savolnomalar ishlab chiqilgan, o'zbek va turk tillaridagi fonetik o'zgarishlarning asosiy terminologik apparati (glossariy), tez aytishlarning defektologik hamda logopedik maqsadlarga yo'naltirilgan illyustrativ tajriba materiallari taqdim etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilgani, metodologik manbalarga tayanilgani, tilshunoslikdagi eng so'nggi ilmiy yutuqlardan foydalanilgani, nazariy fikr va xulosalarning asoslangani hamda amaliyotga joriy etilganligi, shuningdek, tahlilga tortilgan tajriba materiallarining o'zbek va turk tillaridagi fonetik o'zgarishlar qonuniyati haqida xulosa qilish

imkonini berishi, neyrolingvistikaga oid nazariy ma'lumotlar asosida dalillangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek va turk tillaridagi tovush o'zgarishlarining umumiy va farqli belgilari aniqlangani, tovush o'zgarishlari tahliliga asoslanib til egalarining etnik belgilari, tafakkuri, idroki, nutq tuzish qobiliyatiga xos mezonlar ko'rsatib berilgani, o'zbek-turk tili fonetik-fonologik tizimining qiyoslash asoslari ishlab chiqilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'zbek va turk tillarining fonetik tizimiga oid tizimlashtirilgan ma'lumotlardan, me'yoriy va nutq buzilishidagi tovush o'zgarishlarining xususiyatlaridan "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi", "Psixolingvistika", "Neyrolingvistika", "Kognitiv tilshunoslik", "Semantika" fanlari hamda fonosemantika yo'nalishiga oid o'quv qo'llanmalari, darsliklar, ishlanmalar hamda test topshiriqlari tayyorlashda nazariy va amaliy material vazifasini o'tay olishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek va turk tillaridagi fonetik o'zgarishlarning neyrolingvistik xususiyatlari bo'yicha olingan natijalar asosida:

o'zbek va turk tillaridagi tovush o'zgarishlarining miya faoliyati bilan aloqadorligi Luriyaning funksional tizim nazariyasi, Leveltning nutq yaratish modeli hamda generativ fonologiya tamoyillari asosida ilk bor neyrolingvistik aspektida dalillangan va tovush o'zgarishlari fonologik kodlash va artikulyatsion-motor realizatsiya bosqichlari integratsiyasida yuzaga keluvchi jarayon sifatida ilmiy asoslangan tahlillardan, tovush o'zgarishlarining nutqqa ta'sir etuvchi ko'rinishlarini aniqlash, sog'lom insonning va afaziyaga chalingan bemorlarning nutqiy faoliyatiga oid xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020–2023-yillarda amalga oshirilgan AM-FZ-201908172 raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" nomli loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 22-fevraldagi №04/1-655 son ma'lumotnomasi). Natijada ta'limiy korpus ma'lumotlar bazasi tilning fonetik sathi masalalarini o'zlashtirishga yordam beruvchi materiallar bilan to'ldirilgan;

o'zbek tilshunosligida ilk bor tovush o'zgarishlarining neyrolingvistik xususiyatlariga qiyosiy aspektida yondashilib, o'zbek va turk tillarining fonetik tizimi, me'yoriy, orfoepik, orfoepik-orfografik tovush o'zgarishlari, umumgenetik, etnik, ekstralingvistik, intralingvistik, mental omillar bilan belgilanuvchi o'xshash hamda farqli belgilari ochib berilgan tahlillardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020–2024-yillarda amalga oshirilgan №IL-402104209 raqamli "Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish" mavzusidagi loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 11-fevraldagi №04/1-522 son ma'lumotnomasi). Natijada dasturning lingvistik ta'minoti o'zbek va turk tillaridagi me'yoriy tovush o'zgarishlarining neyrolingvistik tavsifiga doir ma'lumotlar bilan boyitilgan;

afaziyaga chalingan o'zbek va turk bemorlari nutqidagi tovush o'zgarishlarining neyrolingvistik asoslari aniqlangan, normal va anormal tovush o'zgarishlarining munosabati tahlil qilinib, umumiy va farqli belgilarining konseptual tahlili amalga oshirilgan o'rinlardan, o'zbek va turk tilshunosligidagi tovush o'zgarishlarining o'rganilish tarixi, fonetik va fonologik hodisalarni neyrolingvistik jarayon sifatida tadqiq etish, tovush o'zgarishlarining neyrolingvistik omillarini aniqlash borasidagi xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020–2024-yillarda amalga oshirilgan №IL-402104209 raqamli “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” mavzusidagi loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 11-fevraldagi №04/1-522 son ma'lumotnomasi). Natijada morfologik tahlillardagi o'zbek va turk tillari tovush o'zgarishlari bilan bog'liq muammolar borasida aniq xulosalar berilgan.

o'zbek va turk bolalar nutqidagi normal va anormal tovush o'zgarishlarining neyrolingvistik belgilari ajratilib, fiziologik-nevrologik omillari aniqlangan tahlillardan, o'zbek va turk tilshunosligidagi tovush o'zgarishlarining ilmiy talqiniga oid nazariy xulosalardan “O'zbekiston” teleradiokanali” davlat muassasasi “O'zbekiston tarixi”, “Tarix tilga kirganda” ko'rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O'zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 24-dekabrda 01-44-550 son ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuv ssenariylarining mazmuni turkiy tillar fonetikasining neyrolingvistik xususiyatlariga oid ma'lumotlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 6ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 22 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Jumladan, ilmiy jurnallarda 4ta maqola, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6ta maqola, jumladan, 2ta maqola xalqaro nashrlarda, 4ta maqola respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 155 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati yoritilgan, maqsad va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

I bob “O‘zbek va turk tillarining fonetik tizimi, me‘yoriy tovush o‘zgarishlarining nazariy asoslari” ga bag‘ishlangan.

1.1§. *O‘zbek tilining fonetik tizimi va orfoepik, orfoepik-orfografik tovush o‘zgarishlarining nazariy asoslari* deb nomlangan. Turkiy tillar fonetikasi va fonologiyasiga oid ilmiy-nazariy qarashlar qadim manbalarda qayd etilgan. Abu Rayhon Beruniy arab tili va eroniy tillarning fonologik tizimini qiyosiy aspektda o‘rganib, bu sohada muhim yutuqlarga erishgan. Bu qarashlar turkiy tillarning fonetik va fonologik tizimi rivojiga katta hissa qo‘shgan¹². Abu Ali Ibn Sinoning fonetika haqidagi fikr-mulohazalari “Asbob” asarida o‘z ifodasini topgan. Ushbu asar arab tilshunosligining ilmiy an‘analari asosida yaratilgan bo‘lsa-da, unda keng doiradagi fonetik tahlillar, xususan, fors tili, turkiy tillar fonetikasiga oid materiallar ham keltirilgan. Ibn Sinoning tovush talaffuzidagi o‘zgarishlar, tovush variantlari haqidagi bevosita kuzatishlari qayd etilgan. Jumladan, yondosh *r* va *l* tovushlarining xususiyatlari tavsiflangan. Nutq tovushlarining yuzaga kelish omillari, bo‘g‘iz va til anatomiyasi; ayrim arab tovushlarining paydo bo‘lishidagi o‘ziga xos xususiyatlar haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan. Ibn Sino nutq tovushlarining fiziologik va anatomik jihatlarini ham izohlagan¹³.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida ilk bor turkiy tillar fonetikasi qiyosiy aspektda tadqiq etilgan. O‘g‘uz va qipchoq qabilalari talaffuzidagi fonetik tafovut *y - j* tovush o‘zgarishi va fonetik hodisalar misolida ko‘rsatilgan. Bir qator fonetik hodisalar izohlangan¹⁴. XIX asrda Boduen de Kurtene korrespondensiya¹⁵ deb ajratgan fonetik hodisa haqida Mahmud Koshg‘ariy XI asrlardayoq ma‘lumot bergan, ya‘ni turklar, o‘g‘uz va qipchoqlar o‘rtasida *m-b*, *t-d* kabi fonetik moslik borligini ko‘rsatgan.

O‘zbek tilshunosligida fonetika va fonologiya bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. O‘zbek tilida kuzatiladigan tovush o‘zgarishlari, asosan, orfoepik xarakterda bo‘lib, me‘yoriy talaffuz ko‘rinishlari hisoblanadi: *oyila – oila*, *turtti-turtdi*. Bu fonetik o‘zgarishlar yozuvda aks etmaydi. Reduksiya, prokopa, sinkopa, apokopa, eliziya, sinerezis kabi hodisalar orfoepik me‘yor asosidagi tovush o‘zgarishlaridir¹⁶. Orfoepik-orfografik xarakterdagi tovush o‘zgarishlari kam uchraydi: *kelyapti*, *tuyulmoq*. O‘zbek adabiy tilining imlo me‘yorlari morfologik tamoyilga asoslangan bo‘lib, tovush o‘zgarishlarining yozuvda aks etmasligi savodxonlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Fonetik o‘zgarishlar tovushning pozitsion va kombinator xususiyatlariga ko‘ra yuz beradi¹⁷. Shuningdek, o‘zbek tilidagi tovush o‘zgarishlarining intralingvistik omillari urg‘u, jarangsizlashuv, sirg‘alish, lab uyg‘unligi, ikki unlining bir so‘zda, ikki undoshning bir bog‘inda yonma-yon kelmasligi, singarmonizm, tejamkorlik, qulaylikka intilish, soddalashish qonuniyati bilan izohlanadi.

¹² Абу Райхон Беруни. Избранные произведения. Том I. – Ташкент, 1974. – С. 41–43.

¹³ Абу Али Ибн Сино. Фонетика хақида рисола. – Тошкент, 1979. – Б. 49.

¹⁴ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I том. – Тошкент, 1960. – Б. 47–50.

¹⁵ Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. – М., 1963. – С. 361.

¹⁶ Маматов Ж. Ўзбек тилида редукция. Филол. фан. номз.... дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 85.

¹⁷ Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 121.

Turkiy tillarda o‘zlashma so‘zlardagi qator unli va sandhi holatdagi unli larni og‘zaki nutqda bir unliga aylantirish qonuniyati mavjud. Bu hodisa turkologlar tomonidan ham qayd etilgan¹⁸.

Ma'lumki, o‘zbek tilining shakllanishida qarluq, o‘g‘uz va qipchoq lahjalari teng darajada ishtirok etgan. O‘zbek tilining qarluq lahjasi *o*-lovchi shahar shevalarida va bu shevalar tayanch bo‘lgan o‘zbek adabiy tilida singarmonizm hodisasi chegaralangan; ammo qipchoq va o‘g‘uz lahjalarida, shuningdek, qarluq lahjasining *a*-lovchi shevalarida singarmonizm qonuniga amal qilinadi¹⁹. O‘zbek adabiy tilida singarmonizmning voqe bo‘lishi boshqa turkiy tillarning adabiy tillariga nisbatan o‘ziga xosliklarga ega. O‘zbek tilining ichki va tashqi fonetik taraqqiyot qonunlari, shu jumladan, o‘zbek adabiy tiliga tayanch bo‘lgan markaziy shahar shevalarida singarmonizm asosida juft unli larning qo‘shiluv (konvergentsiyasi) natijasida oraliq (indeferent) unli larning hosil bo‘lganligi, shuningdek, *ə* (*e*) va *o* kabi (*i* va *a* unli larning divergentsiyasi natijasida) konkret juft bo‘lmagan hosila unli larning paydo bo‘lishi o‘zbek adabiy tili fonetik tizimini turkiy tillarnikidan farqli qilib qo‘ydi²⁰.

O‘zbek tili fonetik taraqqiyotiga arab va fors tillari, keyinchalik rus, rus-baynalmilal so‘zlari sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi.

1.2§. *Turk tilining fonetik tizimi va orfoepik-orfografik tovush o‘zgarishlarining nazariy asoslari*. Turk tilida fonetik o‘zgarishlarga turlicha ta’rif berilgan. Z. Korkmaz fonetik jarayonlarni nutq tovushlari, funksional tovush birliklari (so‘z va bo‘g‘inlar) tarkibida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar sifatida ta’riflaydi²¹. S. Efendio‘g‘li nutqda yuzaga keladigan o‘nlik tovush hodisalarini²², H. Ersoy tovushlarning turli sabablar bilan bir-biriga ta’sir qilishi va shundan kelib chiqadigan farqlar²³, E. Gemalmaz bir til yoki uning lahjalaridagi fonemalarning tovush tarzida namoyon bo‘lishi, morfemalardagi umumiy yoki maxsus, doimiy yoki vaqtinchalik, individual yoki ijtimoiy o‘zgarishlar sifatida tavsiyalaydi²⁴.

M. O‘ner turk tilidagi tovush hodisalarini quyidagi uch kategoriya bo‘yicha tasniflagan: 1. Tarixiy tovush o‘zgarishlari. 2. Grammatik tovush o‘zgarishlari. 3. Nutqdagi tovush o‘zgarishlari²⁵. S. Efendio‘g‘lu va A. Ischan turk tilidagi tovush hodisalarini uch asosiy turga ajratgan: 1. Tovushlarning o‘zaro ta’siri natijasida (bir vaqtning o‘zida) yuzaga keladigan tovush o‘zgarishlari. 2. Tarixiy (vaqt o‘tishi

¹⁸ Радловъ В. В. О языкѣ кумановъ, по поводу издания куманского словаря. – СПб, 1884. – С.24; Катановъ Н. Ф. Опытъ исследования урянхайского языка. – Казань 1903; Грамматика киргизского языка. – Оренбург, 1906. – С.23–27.

¹⁹ Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек тилида сингармонизм // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Фан, 1998. – №4. – Б. 23.

²⁰ Шоабдурахмонов Ш. Кўрсатилган мақола. – Б. 24.

²¹ Korkmaz Zeynep. Gramer Terimleri Sözlüğü, TDK Yay. – Ankara, 1992. – S.150.

²² Efendioğlu S. ve İşcan A. Türkçe Ses Bilgisi Öğretiminde Ses Olaylarının Sınıflandırılması, Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi 17, 121–143, 2010. – S.133.

²³ Ersoy Habibe. Türkçede Ses Düşmesi/Hece Kaynaşması Problemi: Başkurt Türkçesi Örneği // Dil Araştırmaları, Bahar 2017/20.– S.35.

²⁴ Gemalmaz Efrasiyap. Türkiyeli Türkçesinde Ses Olayları // Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Müdürlüğü. 1999. – S. 43.

²⁵ Öner M. Türkçe Ses Bilgisi ve Ses Değişmeleri (Sınıflandırma, Çözümleme ve Öğretim Üzerine Yaklaşımlar). Turkologu u čast! Zbornik povodom 70. rođendana Ekrema Čauševića. – S. 144–146.

bilan) yuzaga keluvchi tovush o'zgarishlari. 3. Turk tilining tuzilishi bilan bog'liq tovush o'zgarishlari²⁶.

M. Joshkun standart turk tilidagi tovush o'zgarishlarini tasniflash uchun quyidagi beshta asosiy turning o'zi yetarli ekanini aytadi: "Benzeşme (assimilyatsiya), Aykırılışma (dissimilyatsiya), Ses Türemesi (tovush ortishi), Ses Düşmesi (tovush tushishi), Yer Değiştirme (metateza)"²⁷. Mazkur tovush o'zgarishlari turk tilida faol kuzatiladigan fonetik jarayonlardir.

Turk tilida *taşra / dışar; tüne- / dün; tok / doy-; tep- / deprem; tarla / darı; bıçkı, bıçak; bütün / bit-; yaş / yeşil, yeşer; bekçi, bekle- / pek, su / suvarmak* kabi ikki shaklda ishlatiladigan so'zlar fonetik o'zgarishlarning tarixiy izlari sanaladi.

O'zbek orfografiyasining asosini fonetik, morfologik va tarixiy-an'anaviy tamoyillar tashkil etadi²⁸. O'zbek tilida morfologik tamoyil yetakchi o'rinni egallaydi, ya'ni talaffuzda kuzatiladigan tovush o'zgarishlariga qaramasdan, so'zning yozma ko'rinishida morfologik shakl saqlanadi. Talaffuzda: *kettim, olipti, kitoptan*. Yozuvda aks etishi: *ketdim, olibdi, kitobdan*. Turk tilida esa, asosan, fonetik tamoyil amal qiladi, ya'ni so'zlar qanday talaffuz etilsa, odatda yozuvda ham shunday beriladi. Bu tamoyil turk yozuv tizimining asosiy mezonidir. Masalan: *kap* (qop) → *kabi* (qopi) – bu yerda tovush yumshagan ($p \rightarrow b$), talaffuzga mos yozilgan; *gönül* → *gönlüm* – unli tushgan, bu ham fonetik o'zgarishga mos yozuv. Turk tilida morfologik yoki tarixiy-a'anaviy tamoyillar alohida tizim sifatida mavjud emas. Ular nazariy jihatdan e'tiborga olinmaydi yoki juda kam hollarda (o'zlashma so'zlarda) aks etadi.

1.3§. *Tovush o'zgarishlarining neyrolingvistik aspekti*. O'zbek tili tovushlari bo'yicha olib borilgan kuzatishlar ularda motivlanish mavjudligini ko'rsatadi. R tovushi tez, titroq, shiddatli, keskin harakatni ifodalaydi va shu mazmundagi so'zlar tarkibida ishtirok etadi: *abjir, birdan, bo'ron, varrak, gulduros* kabi; j tovushi "jajji", "bejirim" mazmuniga ishora qilib, shu xususiyatga ega bo'lgan narsa-buyum nomida uchraydi: *jajji, jinqarcha, jikkak*²⁹.

XIX asrning oxirlariga kelib, miyadagi til markazlari kashf etildi. K. Vernike va P. Broka bu sohadagi tadqiqotlari bilan nerolingvistika sohasiga asos solishdi³⁰. A. Anoxin miyaning o'lchami va aql o'rtasidagi aloqadorlik haqidagi fikr-mulohazalarini o'rta tashladi³¹.

Tovush o'zgarishlari bolalarda til o'rganishning me'yoriy jarayoni sifatida qaraladi va nutq rivojlanishining keyingi bosqichlarida tovushlarning to'g'ri talaffuzi o'zlashtirib boriladi. Doimiy ravishda yangi tovushlarni o'zlashtirish uchun miyada neyron bog'lanishlar rivojlanadi. Bu jarayon, ayniqsa, bolalik davrida juda intensiv kechadi va bu neyronal plastiklik tufayli bolalar tovushlarni

²⁶ Efendioğlu S. İşcan A. Türkçe Ses Bilgisi Öğretiminde Ses olaylarının Sınıflandırılması. A.Ü.Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi [TAED] 43, Erzurum 2010.– S. 122.

²⁷ Coşkun M. V. Standart Türkçede Ses Olaylarının Sebep Sonuç İlişkisi Çerçevesinde Yeniden Sınıflandırılması // <http://www.ayk.gov.tr/wp-content/uploads/2015/01/B0DENSINIFLANDIRILMASI.pdf>. – S. 347.

²⁸ Otamirzayeva S., Yusupova M. O'zbek tili. – Toshkent: O'AJBNT markazi, 2004. – B. 103.

²⁹ Қобилова З. Лексемаларда фонетик мотивация муаммоси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Фан, 2003. – № 3. – Б. 59–60.

³⁰ Broca P. L'aphémie. Bulletin de la Société Anatomique de Paris, 1861. Wernicke C. Der aphasische Symptomencomplex: Eine psychologische Studie auf anatomischer Basis. Cohn & Weigert, 1874.

³¹ Qarang: Alder Hany. Sağ Beyin Yöneticisi, Kariyer Yayınları, İstanbul, 2000. – S. 14.

va soʻzlarni samarali oʻrganadilar. Tovushlarning oʻzgarishi, odatda, bu neyronal moslashuvlarning natijasidir³².

Nutq buzilishi bilan aloqador tovush oʻzgarishlarining bolalarda va afazik bemorlarda kuzatilishi, asosan, miya va til tizimining notekis rivojlanishi yoki zararlanishi bilan bogʻliq. AChB³³larda miyadagi tilni boshqarish sohalarining zararlanishi, fonologik va semantik xatolarga olib keladi. Bu, oʻz navbatida, tovushlarning notoʻgʻri talaffuziga yoki almashish holatlariga sabab boʻladi.

Bolalar va AChBlar nutqidagi tovush oʻzgarishlari turli sabablarga koʻra yuzaga keladi. Bolalar nutqida tovush oʻzgarishlari til oʻrganish jarayonining tarkibiy qismi sifatida yuz beradi va miyaning plastik qobiliyati orqali meʼyoriy holatga oʻtiladi. Afazik bemorlarda tovush oʻzgarishlari, asosan, miya shikastlanishi natijasida yuzaga keladi va fonologik xatolar fonetik oʻzgarishlarga olib keladi. Tovush oʻzgarishlarining neyrologik va rivojlanish psixologiyasiga asoslangan neyrologistik tahlili meʼyorlashish va davolanish uchun muhim ahamiyatga ega.

II bob “Oʻzbek va turk tillaridagi meʼyoriy hamda anormal nutq rivojlanishi bilan kechadigan tovush oʻzgarishlarining neyrologistik xususiyatlari” deb nomlangan.

2.1§. *Oʻzbek bolalar nutqidagi meʼyoriy va anormal nutq rivojlanishi bilan kechadigan tovush oʻzgarishlarining sabablari hamda voqelanishi.* Neyrologistika boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar bolaning kognitiv rivojlanish jarayonida ona tilining tuzilishi va qoidalar tizimi asosida nutqni tushunish va ifodalash koʻnikmalariga oid muhim maʼlumotlarni taqdim etmoqda. Bu jarayon bevosita ona tili grammatikasi kodlarini yechish darajasi bilan bogʻliq. Tushunishdagi muammolar faqatgina til koʻnikmalaridagi nuqsonlar va maʼlumot olish jarayonidagi toʻsiqlar bilan cheklanmay, bola ruhiyati va ijtimoiy mavqeyiga ham taʼsir koʻrsatadi. N.Sayidiraximova uch yoshli bolaning unga shu davriga qadar qiyin hisoblangan *s, e, sh, x* tovushlari va *l, r* sonorlarini alohida ayta boshlashini, biroq soʻz ichida ushbu tovushlarni kamdan-kam holda toʻgʻri talaffuz qilishini qayd etgan. Bu yoshda oldin oʻrganib olgan *p, b, m* tovushlarini, shuningdek, koʻp hollarda soʻz tarkibidagi unli va undosh tovushlarni talaffuz etishda artikulyatsion nuqsonlar koʻzga tashlanadi. Masalan, ular “*r*” oʻrnida “*l*” yoki “*y*”, “*sh*” oʻrnida “*s*” tovushini qoʻllaydilar. Bu esa bolalarda hali artikulyatsion apparatning toʻla rivojlanmaganligidan dalolat beradi³⁴. Tadqiqotlarda tovushlarni alohida va soʻz tarkibida talaffuz qilish masalasiga eʼtibor qaratilgan. Tovushning alohida talaffuzidagi qulaylik, bir artikulyatsion nuqtaning harakatlanishi meʼyoriy holatni taʼminlaydi. Soʻz tarkibidagi tovush talaffuzida meʼyordan chekinishda birdan ortiq artikulyatsion nuqtaning harakatlanishi hamda ular oʻrtasidagi nomuvofiqlik sabab boʻladi.

³² Henson R. N., et al. A Temporal Dissociation of Repetition Effects in Human Visual Cortex. *NeuroImage*, 2002. – URL: <https://www.sciencedirect.com/journal/neuroimage>. (murojaat qilingan sana: 10.09.2025).

³³ AChB – afaziyaga chalingan bemor.

³⁴ Сайидирахимова Н. Болалар нутқининг фонетик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Фан, 2001. – №2. – Б. 76–77.

Masalan, bola *k* tovushini alohida talaffuz qila oladi, ammo *katta* soʻzini *tatta* tarzida aytadi. Bunda *katta* soʻzida *k* (til orqa) va *t* (til oldi) tovushlarining artikulyatsion oʻrni har xilligi hamda *t-k* assimilyatsiyasi tovush oʻzgarishini yuzaga keltiradi. Bu yondashuvga asoslanib, tovushlarning toʻgʻri talaffuzini taʼminlash uchun alohida takrorlashga hamda tovushning bir xil artikulyatsion nuqtada yuzaga keladigan tovushlar hamkorligidagi soʻzlar talaffuziga asoslanish toʻgʻri boʻladi. Yaʼni *k* tovushi talaffuzini *kak(lik)*, *kak(ra)* soʻzlari yordamida tezroq oʻzlashtirish mumkin. Kichik yoshdagi bolalar nutqida tovush tushishi, almashtirilishi, qisqartirilishi (biz bu termin oʻrnida “tushishi” muqobilini qoʻllash lozim, deb hisoblaymiz – G. M.) kabi tovush oʻzgarishlari yuz berishi koʻrsatib oʻtilgan. Tovush oʻzgarishlarining bola miyasidagi nutq va motor markazlari rivojlanishiga bogʻliq ekanligi, unli va undosh tovushlarning notoʻgʻri talaffuzi (masalan, *r – l*) har bir tovushning toʻgʻri talaffuzini boshqaradigan nuqtalardagi neyrofiziologik jarayonlar tugallanmaganligi bilan izohlanishi asoslangan. Masalan, “*sh*” oʻrnida “*s*” tovushining qoʻllanishi yoki *r* oʻrnida *l* qoʻllanishi tovushlarni ifoda etish va artikulyatsion tizimni harakatlantirish markazlari sinaptik rivojlanishining boshlangʻich holatini aks ettirishi koʻrsatib berilgan³⁵. *R* tovushining kech oʻzlashtirilishi meʼyoriy holatda tovushni talaffuz qilish koʻnikmasi mavjud emasligi bilan ham izohlanadi. *R* titroq tovush hisoblanib, oʻziga xos akustik va fonologik xususiyatga ega. Bu tovushni oʻzlashtirishda titroqlik belgisini anglash va ifoda etish koʻnikmasiga ega boʻlish lozim. Bolalar nutqidagi notoʻgʻri talaffuz, tovush oʻzgarishlari miya va artikulyatsion tizimi maromiga yetgach, bartaraf boʻladi. Shu bois bolalar nutqidagi meʼyoriy tovush oʻzgarishlari va nutqiy nuqsonlar farqlanadi. D. Madazizova nutq buzilishlarini fiziologik va patologik turlarga ajratgan³⁶.

Fiziologik buzilishlar miya markazlarining toʻliq rivojlanmaganligi natijasida yuzaga kelsa, patologik buzilishlar bosh miya shikastlanishi yoki boshqa kasalliklar sababli paydo boʻladi. Masalan, *dizartriya* va *alaliya* kabi buzilishlar nutqning toʻliq rivojlanmaganligi yoki organik shikastlanishlar natijasida kelib chiqadi. D. Madazizova bolalardagi nutq buzilishlarini quyidagi turlarga ajratib tahlil qilgan: 1. Fonetik-fonematik buzilishlar (tovushlarning notoʻgʻri talaffuz qilinishi): funksional va mexanik dislaliya, rinolaliya, va dizartriyaning yengil shakllari. 2. Nutqning toʻliq rivojlanmaganligi: dizartriya, alaliya, disleksiya. 3. Kuy-intonatsion va tempo-ritmik buzilishlar: rinofoniya, disfoniya, afoniya; duduqlanish, iteratsiya³⁷.

S. Toʻxtayeva magistrlik dissertatsiyasida anormal nutq koʻrinishlarini oʻrganib, tajriba³⁸ davomida 3-sinf oʻquvchisi J. H. tomonidan yozilgan matnda qator fonetik xatoliklar aniqlanganini qayd etgan. Jumladan, “*b*” fonemasi oʻrniga “*d*”, ayrim hollarda esa “*d*” fonemasi oʻrniga “*b*” ishlatilgani, “*g*” va “*q*” fonemalari farqlanmay, har ikkisi oʻrnida doimiy ravishda “*q*” harfi qoʻllangani

³⁵ Сайидирахимова Н. Болалар нуткининг фонетик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Фан, 2001. – №2. – Б.77.

³⁶ Madazizova D. R. Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari. – Toshkent, 2018. – B. 253.

³⁷ Madazizova D. R. Koʻrsatilgan manba. – B. 253.

³⁸ Tajriba Toshkent shahridagi 66-sonli maxsus maktab hamda 131-sonli umumtaʼlim maktablarida oʻtkazilgan.

kuzatilgan. Shuningdek, “f” harfi o‘rniga “k” yozilishi, fonemalarning joy almashishi holatlari ham qayd etilgan. Mazkur xatoliklar asosida o‘quvchida disgrafiya belgilarining mavjudligi aniqlangan³⁹. Bu o‘rinda harflarni to‘g‘ri aks ettira olmaslik tovush haqida ko‘nikma va tasavvur yo‘qligidan dalolat beradi. $b < d$, $d < b$, $g < q$, $f < k$ tovush almashuvi artikulyatsion xususiyatlar bilan bog‘liq. Shuningdek, harf o‘zlashtirish, tovush va harf munosabatini anglash bilan ham aloqador. F. M. ishtirokida o‘tkazilgan tajriba natijalarida o‘quvchi matnni umumiy mazmunda anglab yozishda fonetik xatolarga yo‘l qo‘ygan⁴⁰; $n < k$: o‘n yosh – o‘k yosh, $n < b$: o‘nta < o‘bta, $e < o$: she‘r – sho‘r, x : paxta – pata, $d < b$: bug‘doy – bo‘boy. Bu tovush o‘zgarishlari miya nutq markazlarining me‘yoriy rivojlanmaganligi, nutq artikulyatsion apparatining buzilishi, nevrologik tizim nuqsonlari bilan bog‘liq.

O‘zbek bolalar nutqidagi me‘yoriy tovush o‘zgarishlari tahlil etilgan, anormal nutq rivojlanishiga doir tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

2.2§. *Turk bolalar nutqidagi me‘yoriy va anormal nutq rivojlanishi bilan kechadigan tovush o‘zgarishlarining sabablari hamda voqelanishi.* Turk tilida dastlab talaffuz qilish va yozish jarayonida *l*, *t*, *n*, *r*, *m* kabi tovushlari o‘rgatilmoqda va bu holat bolalarning tabiiy tovush o‘zlashtirish jarayoniga zid keladi. Ayniqsa, *r* tovushi turk bolalari uchun ham eng kech o‘zlashtiriladigan tovush bo‘lib, bu tovushni o‘zlashtirishni keyingi bosqichlarga qoldirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, turk tilida o‘qish va yozishni o‘rgatishdagi yondashuv va metodlarni qayta ko‘rib chiqish zarurati mavjud.

Turk bolalar nutqidagi anormal nutq buzilishlari ikki guruhga bo‘linadi: artikulyatsiya buzilishlari va fonologik buzilishlar.

1. Artikulyatsiya buzilishlari – bolaning ma‘lum bir tovushni ifoda etishda qiyinchiliklarga duch kelishidir. Masalan, *r* tovushini ayta olmaslik.

2. Fonologik buzilishlar – tovushlarni farqlay olmaslik: *sut-diit. Araba-abara.* Fonologik buzilishlar uchun eng samarali davolash usuli til va nutq terapiyasidir. Defektolog bolaning nutq tovushlarini to‘g‘ri o‘rganishi va ishlatishi uchun individual terapiya sessiyalarini o‘tkazadi. Davolash jarayonida turli usullar qo‘llanadi.

Fonologik buzilishlar bolalar yoki kattalarning tildagi tovushlarni ifoda etish, ajratish va tartibga solish qobiliyatidagi muammolardir. Ushbu buzilishlar, nutq tovushlarining ma‘lum bir tizim yoki qoidaga muvofiq ishlatilmasligi bilan namoyon bo‘ladi. Fonologik buzilishlar nutq rivojlanishida tovushlarning noto‘g‘ri o‘rganilishi sababli yuzaga keladi va nutqning tushunilishini qiyinlashtiradi. *Köpek* so‘zida *k* tovushini to‘g‘ri ifodalashi mumkin, lekin *kapı* so‘zida aynan shu tovushni noto‘g‘ri ishlatadi. Turk bolalar nutqida quyidagi fonetik o‘zgarishlar kuzatiladi: assimilyatsiya: *kapı-papı*; metateza: *toprak-torkap*; elliziya: *kedi-edi*; epenteza: *tren-tiren*; tovush almashuvi: *kapı-tapı*; tovush yumshatilishi: *taş-daş*; oxirgi tovushlarni tushirish: *kedi-ke*.

³⁹ To‘xtayeva S. Neyrolingvistikaning nazariy asoslari. Magistrlik diss. – Toshkent, 2017. – B. 67.

⁴⁰ To‘xtayeva S. Ko‘rsatilgan diss. – B. 67.

Turk bolalar nutqidagi buzilishining motivatsion belgilari ko'rsatilgan: funksional sababi ma'lum bo'lmagan, organik / rivojlanishga aloqador, hissiy / sezgirlik bilan bog'liq, motor / nevrogenik, struktural nutq buzilishlari (orofasial anomaliyalar, travma yoki operatsiyaga bog'liq struktural buzilishlar)⁴¹.

Turk tilidagi anormal nutq bilan bog'liq tovush o'zgarishlari so'z boshida bog'iz (h: *hava* → *ava*), til orqa (k: *kitap* → *itap*), sonor (y: *yulan* → *ilan*); so'z o'rtasida sonor (r: *gördüm* → *gödüm*) tovushining tushirilishi, lab-tish undoshining til oldi undoshiga almashuvi (f<l: *mutfak* → *mutlak*), lab-lab sonor tovushining til oldi jarangsiz undoshiga almashuvi (m<t: *masa* → *tasa*), lab-lab jarangsiz portlovchi undoshining til oldi jarangsiz sirg'aluvchi undoshiga almashuvi (p<s: *para* → *sara*) uchraydi⁴².

Tovush o'zgarishlari nutqning me'yoriy rivojlanish yoki buzilish darajasini ko'rsatadi. O'zbek tilida ham kuzatiladigan $r < y$, $r < l$ tovush almashuvlari nutq rivojlanishining me'yoriyligidan og'ishini bildiradi. Bu o'rinlarda tovush o'zgarishlari akustik va artikulyatsion xususiyatlari yaqin tovushlar o'rtasida kuzatilmoqda. r , l sonor undoshlarga mansub, ba'zi manbalarda y undoshi ham sonor undosh sifatida qayd etilgan. Bu tovushlarning jarangli yoki sonorligi bir xil akustik xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bunday holatda nutq anormaligi akustik va artikulyatsion apparati nuqtayi nazaridan bir-biriga yaqin bo'lgan tovushlarni farqlay olmaslik natijasida kuzatiladi. Ayrim tovush o'zgarishlari, masalan, $f < l$, $m < t$ bir-biridan keskin farqlanadigan tovushlar o'rtasida kuzatiladi. $F - l$; $m - t$ tovushlari akustik xususiyatlari va artikulyasion o'rniga ko'ra farqlanadi. Bunday tovush almashuvi nutq apparatining rivojlanmaganligi, tovushlarni farqlay olmaslik bilan bir qatorda miya faoliyati, nutq uchun mas'ul nuqtalar funksiyasining me'yoriy rivojlanmaganligidan dalolat beruvchi nutqiy nuqson sifatida qaralishi lozim.

2.3§. *O'zbek va turk bolalar nutqidagi me'yoriy va anormal nutq rivojlanishi bilan kechadigan tovush o'zgarishlarining konseptual tahlili.* O'zbek va turk tillaridagi me'yoriy va anormal nutq rivojlanishi bilan bog'liq tovush o'zgarishlarida umumiy va farqli jihatlar kuzatildi. Me'yoriy holatdagi tovush o'zgarishlaridagi farqli xususiyatlar quyidagicha:

O'zbek va turk tillari bolalar nutqida quyidagi umumiy belgilar kuzatildi:

- r tovushining kech o'zlashtirilishi;

tovush o'rganishning til o'zlashtirishga ta'sir qilishi.

O'zbek va turk tillaridagi farqli belgilar quyidagilarda aks etgan:

o'zbek tilida unlining undoshdan oldin o'zlashtirilishi, turk tilida lab-lab tovushlarining birinchi, lab-tish undoshlarining keyin o'zlashtirilishi kuzatiladi;

o'zbek tilida - *ch* -*n* tovushlari, turk tilida ş va z tovushlari nisbatan kech o'zlashtiriladi.

O'zbek tilidagi izlanishlarda tovush o'zgarishlari ayrim o'rinlarda fonetik birlikning "xunuk eshitilishi" bilan izohlangan; turk tilida o'zlashtirish jarayonida qiyin – oson modeli: $r-l$, $s-\text{ş}$, $p-b$, $t-d$ ajratilgan.

⁴¹ <https://www.dilvekonusmaterapisi.com.tr/dil-konusma-ve-yutma-bozukluklari/cocuklarda-konusma-bozuklugu/>.

⁴² Topbaş S., Konrot, A., Ege, P., Duru H., Akgün E. G., Maviş İ., Nas N.ning dissertatsiyalaridagi tajribalarda keltirilgan misollar asosida tayyorlandi.

Turk tilida *k, t, d, n* tovushlari erta o‘zlashtiriladigan fonetik birliklar sifatida qayd etilgan.

O‘zbek va turk bolalar anormal nutqidagi tovush o‘zgarishlaridagi farqli xususiyatlar quyidagicha:

O‘zbek va turk bolalari anormal nutqidagi tovush o‘zgarishlarining farqli belgilari

O‘zbek tilida	Turk tilida
Tovush almashuvini aniq belgilash mumkin: $q \rightarrow k, g \rightarrow v/d/g$. Shuningdek, bir tovushning variantli almashuvi, ya’ni birdan ortiq tovushga o‘zgarishi kuzatiladi.	Tovush almashuvining aniq undoshlar doirasida yuz berishi qat’iy emas.
O‘zlashgan so‘zlardagi unlining tushishi uchraydi (<i>saat</i> → <i>sat</i>).	So‘z boshidagi undoshning tushishi faol (<i>kapı</i> → <i>apı</i>).
Til orqa undoshi til oldi undoshiga o‘zgaradi: <i>gul</i> → <i>dul</i> .	Titroq va til orta undoshining almashuvi kop uchradi: <i>sarı</i> → <i>sayı</i> (turk).
“j → s” (<i>jo‘ja</i> → <i>so‘sa</i>) tovush almashuvi ko‘p uchraydi.	<i>r, s, ş, k, t</i> tovushlari ko‘proq o‘zgaradi.

Me’yoriy nutqdagi tovush o‘zgarishlarining farqli xususiyatlari o‘zbek va turk tillarining singarmonizm qonuniyatiga amal qilishi, etnik til xususiyatlari va boshqa tillar ta’siri bilan izohlanadi. Anormal nutqdagi tovush o‘zgarishlari tabiiy til belgilaridan tashqari miya shikastlanishi, artikulyatsion tizim buzilishining individual xususiyatlari bilan bog‘liq.

M. Ayupova tomonidan bildirilgan fikrga ko‘ra, zamonaviy neyrofiziologiya nuqtayi nazaridan nutq buzilishlarini tahlil qilish hamda nutq rivojlanishini me’yor va patologiyada o‘rganish organizmning funksional tizimi shakllanish qonuniyatlari asosida olib boriladi. Bu yondashuv P. K. Anoxin tomonidan ilgari surilgan funksional sistema nazariyasiga tayanadi. Ushbu nazariyada miya strukturasi integratsiyalashgan faoliyati orqali oxirgi natijaga erishish jarayoni markaziy o‘rinni egallaydi: “Nutq buzilishlarini tahlil qilishdan asosiy maqsad – nutq patologiyalarini ilmiy asosda o‘rganish, ularning mazmuni va yo‘nalishlarini aniqlash hamda mavjud nuqsonlarning tuzilishini ochib berishdan iborat”⁴³. M. Ayupova fikriga ko‘ra, bola nutqining to‘liq yoki qisman yo‘qolishi agar nutq shakllanib bo‘lgandan so‘ng – ya’ni bola muayyan darajada erkin muloqot qila olganidan keyin, lekin keyinchalik bosh miya jarohati, neyroinfeksiya yoki miya o‘simtasi oqibatida sodir bo‘lsa, bu holat bolalar afaziyasi deb ataladi. Turk tadqiqotchisi N. Nas ham o‘zining tadqiqotida bolalarda afaziyaning uchrashi haqidagi fikrlarni ilgari surgan⁴⁴.

Tadqiqot doirasida o‘zbek bolalarining nutqidagi anormal tovush o‘zgarishlarini o‘rganish va tahlil qilish maqsadida logoped-mutaxassislar –

⁴³ Ayupova M. Y. Logopediya: darslik. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – B. 38–40.

⁴⁴ Nas N. Dil konusma bozukluğu (kekemelik, gecikmiş dil ve konuşma (gdk), konuşma sesi bozukluğu (ksb), artikülasyon bozukluğu, fonolojik bozukluğu) olan çocuklarda ebeveyn tutumu ve ebeveyn stres indeksinin incelenmesi. Kapadokya Üniversitesi Lisansüstü Eğitim, Öğretim ve Araştırma Enstitüsü Dil ve Konuşma Terapisi Anabilim Dalı Yüksek Lisans Tezi. – Nevşehir, 2025. – S. 17–18.

N.B. Yusupova (487-sonli “Erkatoy” DMTTning defektolog-logopedi) va “Logo-effekt” markazi asoschisi N. Aripova bilan hamkorlikda kuzatuvlar olib borildi. Amaliy kuzatuvlar 5–6 yoshli hamda 7–9 yoshli bolalar guruhlari orasida o‘tkazilib, ularning nutqiy faoliyatida uchrayotgan tovush buzilishlari tizimli ravishda qayd etildi va tahlil qilindi.

Tajriba tahlili. Tajriba⁴⁵ jarayonida 5 yoshli (N.) ismli bolaning 11 ta tovushni noto‘g‘ri talaffuz qilishi kuzatildi. Tajriba mazmuni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Bolaning holatini o‘rganish (dastlabki tahlil). 2. Tashxis qo‘yish. A. Nutqiy diagnostika: *Tovush tahlili. Fonematik eshituv tahlili. So‘z boyligi va nutq faolligini aniqlash. Nutq apparati holati tahlili. Eshitish va aqliy holati.* 3. Tuzatish ustida ishlash yo‘nalishlari: 1) tovushni ifoda etish ustida ishlash; 2) fonematik eshituvni rivojlantirish; 3) so‘z boyligi va gap tuzish. B. Uy sharoitida ota-onaga beriladigan topshiriq.

Tashqi ko‘rinish sog‘lom bo‘lsa-da, tovushlarni talaffuz eta olmaslik nutqiy apparat va fonematik eshitish bilan bog‘liq muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Bu esa tovush o‘zgarishlari miya faoliyatining funksional buzilishiga bir dalil ekanligini isbotlaydi. Tovushni ifoda etish ustida ishlash, har bir noto‘g‘ri tovush talaffuzi uchun alohida artikulyatsion mashqlar bajarish, turli vositalar, o‘yinlar orqali tovush talaffuzini mustahkamlash, fonematik eshituvni rivojlantirish, so‘zdagi tovushni topish, minimal fonetik juftliklar farqini aniqlash kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qilishi asoslandi.

Logoped-mutaxassislarining tashxis qo‘yish va davolash rejalariga artikulyatsion o‘rni yaqin, shuningdek, keskin farqli tovushlarni yonma-yon talaffuz qilish, tez aytish topshiriqlarini kiritish tavsiya qilindi. Tez aytishlar (tutallar) o‘zbek xalqining tafakkuri natijasida shakllangan folklor janri bo‘lib, aqliy va nutqiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan. Buni zamonaviy ilm-fan ham tasdiqlamoqda. O‘zbek xalqida tez aytish san‘at darajasiga ko‘tarilgan. Masalan, *Qishda kishmish pishmasmish, pishsa, kishmish qishmasmish* tez aytishida tovushlar uyg‘unligidan tashqari tardu aks, masnu’ san‘atlari mavjud. Tez aytish artikulyatsion o‘rni deyarli bir xil tovushlar talaffuziga asoslangan bo‘lib (*sh, s*), ularni farqlashga diqqatni jalb etadi. Bu esa miyaning nutq tovushi uchun mas‘ul nuqtalari funksiyasini faollashtirishga xizmat qiladi.

Turk tilida til o‘rgatuvchilar yondashuvlariga oid diksiya mashqlaridan foydalaniladi.

III bobda **“O‘zbek va turk tillaridagi nutq buzilishi bilan kechadigan tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik xususiyatlari”** tahlil qilingan.

3.1§. *Afaziya o‘zbek va turk tillaridagi tadqiqotlarda tovush talaffuzi va o‘zgarishlarining nazariy asoslari.* O‘zbek tilida afaziya bag‘ishlangan tadqiqotlar yaqin yillardan boshlab amalga oshirilmoqda. Bu borada monografik hajmdagi ishlar mavjud emas, I. Azimova va L. Qambarovanning tadqiqotlarini shu

⁴⁵ Tajriba 487-maktabgacha ta‘lim muassasasida logoped-mutaxassislar ishtirokida o‘tkazildi va video, audiotasmalarda taqdim etildi.

yoʻnalishdagi izlanishlar sifatida keltirish mumkin⁴⁶. Turk tilida nutq buzilishi, tovush oʻzgarishlari chuqur oʻrganilgan. Tadqiqotlarda nutq tovushlarini oʻzlashtirish, tovush oʻzgarishlari, nutq bosqichlari neyrolingvistik aspektda tahlil etilgan. Tilning vujudga kelishi va fikrning nutq tovushlari orqali ifodalanishi bir necha bosqichlarda amalga oshishi qayd etilgan⁴⁷.

O. Tanrıdagʻ neyrolingvistikaning rivojlanishi tilning asosiy tarkibiy qismlari sifatida qabul qilingan fonologiya, sintaksis va semantika bilan bogʻliq sohalarni aniqlash, madaniy evolyutsiya va miyadagi til qurilishining rivojlanish darajasi bilan aloqadorligini taʼkidlagan⁴⁸. Nutqni tinglayotganda miya eshitish nervlaridan kelayotgan doimiy va oʻzaro aloqador maʼlumotlarni tovush yoʻli tizimiga aylantirishi⁴⁹, nutq tovushlari miyada maxsus birliklar shaklida saqlanishi, fonologik komponentning faolligi miyaning oʻng yarim sharida tashkil etilishi, bunda prosodiya tizimining muhimligi haqida fikrlar bildirilgan⁵⁰.

J. Tesak afaziya va lingvistika oʻrtasidagi aloqadorlikni taʼkidlab, afaziya zararlari lingvistik jihatdan tasvirlanishining ahamiyatini koʻrsatib bergan. Shuningdek, afaziya maʼlumotlarining lingvistik gipotezalar va modellarni yaratishda yordam berishini aytib oʻtgan⁵¹. Afaziyaning ikki asosiy kategoriyasi – motor (ifodalovchi) va sensor (qabul qiluvchi, sezgir) afaziya farqlanadi. Bu borada olimlar farqli qarashga ega: “Motor, ifodalovchi yoki Broka afaziyasi, asosan, bemorning nutqiga taʼsir qiladigan buzilishdir; Ushbu turdagi afaziya, nutqni boshqaradigan chap yarim sharning frontal-lateral hududlariga yetkazilgan zarar bilan bogʻliqdir”⁵². Turk olimlarining nutq buzilishiga oid qarashlari oʻzbek afaziologiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

3.2§. *Oʻzbek va turk tillarida afaziyaga chalingan bemorlar nutqining fonetik aspektdagi tahlili.* AChBlar nutqi tovush oʻzgarishlari bilan namoyon boʻladi. Oʻzbek tilida soʻzlashuvchi AChBlar nutqida quyidagi fonetik oʻzgarishlar kuzatiladi:

⁴⁶ Азимова И. Ўзбек тилидаги аграмматик спонтан нутқда гапларнинг қўлланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2019. – №5. – Б. 94-98; шу муаллиф. Ўзбекча аграмматик спонтан нутқда боғлама ва феъл функционал шакллари ифодаланиши. *Lingvist* (ilmiy maqolalar toʻplami). – Toshkent, 2015. – Б. 97-103; Qambarova L.A. Sensor afaziyaning rus tilshunosligida oʻrganilishi // Xorazm Maʼmun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2024. – № 9/4. – B.101-103; shu muallif. Oʻzbek tilidagi sensor afaziyaga oid tajriba tahlili // *Til va adabiyot.uz*. Ilmiy-elektron metodik jurnal. – Toshkent, 2024. – № 18. – B.155-159; shu muallif. Oʻzbek tilida sensor afaziyada rasmlarni nomlash va moslashga oid tajriba tahlili // *OʻzMU xabarлари*. – Toshkent, 2025. – № 1/3. – B.321-324; shu muallif. Sensor afaziyada takrorlash koʻnikmasining saqlanganligiga oid tajriba tahlili // *Qoʻqon DPI ilmiy xabarлари*. – Qoʻqon, 2025. – № 2. – B.112-124.

⁴⁷ Uzun N. E. Anaʼizgileriyle evrensel dilbilgisi ve Türkçe: Multilingual, 2000. – S. 205.

⁴⁸ Tanrıdagʻ O. Afazi. – Ankara: GATA Basımevi, 1993. – S. 187.

⁴⁹ Ergenç İ. Dilin Beyindeki Organizasyonu ve Konuşmanın Gerçekleşmesi, Multidisipliner Yaklaşımla Beyin ve Kognisyon, 2000.– S. 122.

⁵⁰ Özçelik Ö., & Nagai, M. Possible syntactic subject positions in Turkish: Evidence from phonology. Paper presented at the Proceedings of the 6th Workshop on Altaic Formal Linguistics (WAFL 6). Cambridge, MA: MIT Working Papers in Linguistics (MITWPL), 2010.

⁵¹ Tesak J. & Schulz, K. Geschichte der Aphasie. Schulz-Kirchner Verlag GmbH, 2001; Vater H. Einführung in die Sprachwissenschaft. 4. Baskı. Wilhelm Fink Verlag München, 2002. – 209 p.

⁵² Springer S. & Deutsch G. Linkes Rechtes Gehirn. Monika Niehaus-Osterloh (Çev.). 4.Baskı. Spektrum Akademi Verlag, 1998. –140 p.

1. Asosan, bo'g'in, so'z tushirib qoldirilishi qayd etildi. Og'zaki nutqqa xos unli tushishi, *-lar* qo'shimchasidagi undosh tushishi (*bolla – bolalar*)⁵³, ikki so'zdagi unlining yonma-yon kelishida unli tovush tushishi (*o > bog'chapa – bog'cha opa*), ikki so'z o'rtasida tovush orttirilishi va unlining tushishi (*y; e: yaxshi(y)dim – yaxshi edim*), tovush ortishi (*t:o'shattan – o'shatdan*), assimilyasiya (*n<s: adressi*), yonma-yon kelgan unli va undoshning tushirilishi (*-lib: o'lip qopti – o'lib qolibdi*) yuz beradi.

2. Nutq buzilishi bilan bog'liq tovush o'zgarishlari uchraydi: *kkk...kirlarni*. Bu o'zgarish birinchi undoshning artikulyatsiya o'rnidan boshqa tovush artikulyatsion nuqtasiga o'tishning qiyinligi bilan izohlanadi.

O'zbek tilida tovush o'zgarishlari semantik o'zgarishga ham olib kelishi mumkin. Masalan, adabiy tildagi *-n* ayrim kishilik va ko'rsatish olmoshlariga kelishik qo'shimchalari, o'xshatish shakllari qo'shilishida ortadi: *u+dan=undan; shu+dan=shundan; o'sha+day=o'shanday*. Bunda asos va qo'shimchaga aloqador bo'lmagan tovush ortishi yuz beradi. Ushbu tovush o'zgarishida faqat kelishik shaklining grammatik ma'nosi ifodalanadi. Shunday o'rinda so'zlashuv uslubiga xos *-t* ortishi ham kuzatiladi: *o'sha+t=o'shattan*. Bu tovush o'zgarishida ortgan tovush kelishik shakliga aloqador: *dan<tan*. *O'shattan* shaklida kelishik ma'nosidan tashqari joy ma'nosi ham anglashiladi: *o'shattan < o'sha yerdan*.

Afaziya chalingan bemorlar nutqidagi tovush o'zgarishlari kasallik turi bilan bog'liq umumiy hamda bemorning fiziologik, ruhiy holatiga aloqador farqli belgilarga ega bo'ladi.

3.3§. *O'zbek va turk tillaridagi afaziya ko'rinishlarida tovush o'zgarishlarining voqelanishi*. Broka afaziyasidagi aksariyat tovush o'zgarishlari me'yoriy hisoblanadi. Asosiy muammo so'zlarni bog'lash funksiyasini bajaruvchi grammatik shakllar, so'zlarning tushirilishi bilan namoyon bo'ladi.

Miyada yuzaga kelgan shikastlanish chap yarimshardagi nutq markaziga ta'sir etsa, bemorda nutq buzilishlari yuzaga keladi⁵⁴. G. Kuruog'li tadqiqotida ona tilisi ozarbayjon va turk tili bo'lgan bemorlarning nutqi to'rt asosiy ko'nikma jihatidan baholangan: takrorlash, tinglab tushunish, o'qish va yozish. Afaziyaning to'rt turi ajratilgan: 1) motor afaziya (uch tip); 2) sensor afaziya (uch tip); 3) amnestik afaziya; 4) total afaziya⁵⁵. Motor afaziya nutq qobiliyatining buzilishi darajasiga ko'ra kichik turlarga bo'lingan. 1-tip motor afaziya fonetik buzilish sifatida tavsiflangan. Bemor lab hamda til harakatlarini boshqara olmaydi, natijada tovushlar va so'zlarni bir-birining o'rnida ishlatadi. Ushbu bemorlarning nutqi, asosan, tovush o'zgarishlaridan iborat bo'ladi. Masalan, bemor *fırça* o'rniga *çırça*, *erik* o'rniga *erek* yoki *arük* deb talaffuz qilishi ko'rsatilgan.

Sensor afaziya – aytilganlarni tushunish qobiliyatining buzilishida ham tovush va tovush o'zgarishlari bilan bog'liq muammolar kuzatilishi qayd etilgan.

⁵³ Afaziya chalingan bemor nutqidagi fonetik o'zgarishlar tahlilida I.Azimova maqolalarida keltirilgan nutq namunalari asoslanildi: Azimova I. O'zbek tilidagi agrammatik spontan nutqda gaplarning qo'llanishi / O'zbek tili va adabiyoti, 2019. – №5. – B. 94–98.

⁵⁴ Kuruog'lu G. Beyin Hasari Geçiren Türk Hastaların Dil Bozukluklarının Dilbilim Açısından İncelenmesi Türk Dünyası Sosyal Bilimler Dergisi (Peer-Reviewed Journal), 2004 no.31.– S. 220.

⁵⁵ Ko'rsatilgan manba. – S. 221.

1-tip sensor afaziyaning og'ir bo'lmagan holatlarida bemor faqat o'zaro fonema almashinuvi bilan farqlanadigan so'zlarni tushunishda qiyinchilik sezadi: *külek - kürek, bal - bar* kabi so'zlarni farqlay olmaydi.

Turk tilidagi motor afaziyada kuzatiladigan tovush o'zgarishlari quyidagi belgi-xususiyatlarni aks ettiradi:

1. So'z boshida k tovushining tushishi kuzatiladi: *kız → ız*. Bu xususiyatning ayrim ko'rinishlari me'yoriy nutqqa ham xos bo'lib, bevosita nutq buzilishi bilan aloqador emas. So'z boshida nutq buzilishi bilan kechadigan tovush tushishi ham kuzatildi: *hamam → amam*.

2. Ikki so'zda yonma-yon kelgan unlilar orasida undosh (*r*) orttiriladi: *isti ot → istiro*.

3. Metatezaning noodatiy ko'rinishlari uchraydi: *şirin → işir*.

4. Motor afaziyaga chalingan bemorlar nutqida fonetik o'zgarish artikulyatsion o'rni va akustik, fiziologik xususiyatlariga ko'ra yaqin tovushlar o'rtasida uchraydi: *p < b - pas < bas; m < n - hamamda → hamanda*.

5. Fonetik o'zgarish artikulyatsion o'rni va akustik, fiziologik xususiyatlariga ko'ra o'zaro keskin farqlanadigan tovushlar o'rtasida yuz beradi: *k < ş : kişi → şışı; n < d : nem < dem; h < r : reyhan → reyran; v < n : divan → dinant*.

6. Nutq buzilishi bilan kechadigan va nutq buzilishining darajasini ko'rsatadigan ko'p tarmoqli tovush o'zgarishlari: *sarımsak → sarmırat, vermişel → mereveşir, moloko → baladol*.

O'zbek va turk tillarini qiyoslash natijasida me'yoriy va anormal, nutq buzilishi bilan yuzaga keladigan tovush o'zgarishlarida miya faoliyati hamda nutq funksiyalari bilan belgilanuvchi aloqadorlik mavjud. Tovush o'zgarishlarida o'zbek va turk tillari qardoshligining umumiy fonetik belgilari, shuningdek, mazkur tillarning etnik xususiyatlari, boshqa tillar bilan munosabati, umumturkiy fonetik qonuniyatlarga amal qilish bilan izohlanuvchi farqlar ham kuzatildi.

XULOSA

1. Qiyosiy tilshunoslikning ilk rivojlanish davridan boshlab tovush o'zgarishlari ilmiy muammo sifatida o'rganilib keladi. Turkiy tillar fonetikasi va fonologiyasi nazariyasiga oid ilmiy qarashlar ilk marta O'rta Osiyoning qomusiy olimlari qarashlarida o'z ifodasini topgan. Mutafakkirlarning hind, arab tillari va eroniy tillarning fonologik tizimiga oid tahlillari turkiy tillarning fonetik va fonologik tizimi rivojiga muhim hissa qo'shgan. Qomusiy olimlar asarlarida tovush o'zgarishlari, tovush variantlari, yondosh tovushlarning xususiyatlari, talaffuzi bilan bog'liq jarayonlar tahlil qilingan. Tovush talaffuzining artikulyatsion o'rni va akustik belgilariga aloqadorlikda tahlil qilingani, undosh fonemalar o'rtasidagi korrelyativ farqlarni aniqlashga qaratilgan mulohazalar keyingi davrlarda yuzaga kelgan fonetik-fonologik ta'limotlar uchun asos vazifasini o'tagan.

2. O'zbek va turk tillarining dastlabki qiyosiy fonetik tahlili Mahmud Koshg'ariy tomonidan amalga oshirilgan. Fonemalarning nutq jarayonida turli variantlarga ega bo'lishi, qattiq va qalin, yumshoq yoki ingichka tovushlar, tovush

almashishi, o‘zaro ta’siri qiyosiy tahlillarda yoritilgan. O‘zbek tili qarluq guruhiga, turk tili esa o‘g‘uz guruhiga mansub bo‘lib, etnik xoslik mazkur tillarning fonetik tizimida ham aks etadi. O‘zbek va turk tillarining xususiy taraqqiyoti, ekstralingvistik va intralingvistik omillar natijasida fonetik tizim va tovush o‘zgarishlarida tavovutlar yuzaga kelgan. O‘zbek tilidagi aksariyat tovush o‘zgarishlari orfoepik (faqat talaffuzda namoyon bo‘ladi), qisman orfoepik-orfografik (ham talaffuzda, ham yozuvda aks etadi), turk tilida orfoepik-orfografik (ham talaffuzda, ham yozuvda aks etadi) xarakterga ega. Har ikki tilda ham me’yoriy va anormal nutq rivojlanishi hamda nutq buzilishlari bilan bog‘liq tovush o‘zgarishlari kuzatiladi.

3. O‘zbek tilidagi me’yoriy tovush tushishi umumiy qo‘shimchalar va so‘zlar tarkibidagi tovushlarning qisqarishi bilan bog‘liq. Asosan, so‘z boshi, o‘rtasi va oxirida *a*, *i*, *u* unililari, *t*, *n* tovushlari tushiriladi. O‘zbek tilida tovush orttirilishi unililarning bir so‘zda yonma-yon kelishi va morfologik jarayonlar bilan izohlanadi, *y, n* tovushlari ortadi. Turk tilida undosh tovushlar orttirilishi ko‘p hollarda (*ş*) (*y*), (*s*), (*n*) kabi tovushlar orqali sodir bo‘ladi va bu jarayon unli tovushlarga ham ta’sir qiladi. Turk tilida, *p*, *ç*, *t*, *k* tovushlari yumshab, *b*, *c*, *d*, *g/ğ* tovushlariga aylanadi. Bu holatni o‘zbek va turk tillariga boshqa tillarning fonetik ta’siri bilan izohlash mumkin.

Tovush o‘zgarishlari tildagi fonetik hodisa bo‘lib, miyaning nutqni qayta ishlash va talaffuzni boshqarish bilan bog‘liq qismlariga ta’sir ko‘rsatadi. Tovush o‘zgarishlari miyadagi neyron tarmoqlari bilan bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi.

4. O‘zbek tilidagi me’yoriy nutq tahlili tovushlarning yakka holda hamda so‘z tarkibida kelishi talaffuz darajasiga ta’sir qilishini ko‘rsatdi. Tovushning alohida talaffuzi artikulyatsiya jarayonining qulayligi bilan tavsiflanadi, bir xil artikulyatsion nuqtadagi harakat me’yoriy talaffuzni ta’minlaydi. Aksincha, tovushning so‘z tarkibida talaffuz qilinishi bir nechta artikulyatsion nuqtalarning bir vaqtda ta’sirlashuvi natijasidagi nomuvofiqlik bilan izohlanadi. To‘g‘ri talaffuzni ta’minlashda tovushni alohida hamda bir xil artikulyatsion nuqtada yuzaga keladigan tovushlar hamkorligida talaffuz qilishga asoslanish muvofiq hisoblanadi.

5. O‘zbek bolalar me’yoriy nutqidagi fonetik o‘zgarishlar nutq apparatiga bog‘liq bo‘lishi, tovushlarning bir-biriga ta’sir qilishi, nutqiy tejamkorlik, cho‘ziqroq tovushlarning tushirilishi, qisqaroq tovushlarning talaffuz qilinishi, portlovchi va qorishiq tovushlarning so‘z boshida, so‘z o‘rtasida tushirilishi, jarangli va jarangsizlar tushirilib, cho‘ziq unililarning saqlanib qolishi uchraydi. O‘zgarishlar til orqa (*q* → *k*), til oldi (*s* → *sh*), titroq va til o‘rta (*r* → *y*) undoshlari talaffuzida kuzatildi. Bu jarayon artikulyatsion nuqtani tovush talaffuziga muvofiqlashtirish ko‘nikmasining yo‘qligi bilan izohlanadi va nutqiy buzilishning quyi darajasi hisoblanadi. Til oldi undoshi o‘rnida lab-lab (*n* → *b*), til orqa undoshining talaffuz qilinishi (*n* → *k*), til orqa undoshi o‘rnida chuqur til orqa undoshining talaffuz qilinishi (*g* → *g’*), undosh o‘rnida unililarni cho‘zish (*g* → *uu*) tovush talaffuziga ma’sul miya qismlari faoliyatining yuqori darajadagi buzilishini ko‘rsatadi. Akustik, artikulyatsion, fiziologik xususiyatlari yaqin tovushlarning o‘zgarishi nutq buzilishining quyi darajasini, qayd etilgan belgilari bilan

farqlanadigan tovushlarning o'zgarishga uchrashi nutq nuqsonlarining yuqori darajasidan dalolat beradi.

6. Turk bolalari me'yoriy nutqida titroq tovush bilan bir qatorda til oldi sirgaluvchilarini ham kech o'zlashtirish kuzatiladi. Titroq tovush o'zbek tilida yon tovush (*l*), til orta undoshi (*y*) bilan ifodalansa, turk tilida aksariyat o'rinlarda yon tovush (*l*) tarzida talaffuz qilinadi. *r* tovushining kech o'zlashtirilishi bolalarda talaffuz (titratish) ko'nikmasining kech hosil bo'lishi bilan izohlanadi. Mazkur tovush ma'lum muddatdan keyin ham o'zlashtirilmasa, miya faoliyati va artikulyatsion nutq apparati bilan bog'liq nuqson sifatida qaraladi. Turk tilida tovush ortishining keng miqyosda uchrashi singarmonizmning faolligi bilan izohlanadi. Turk tilida so'z boshidagi undosh tushishi o'zbek tiliga nisbatan ko'p kuzatiladi.

7. O'zbek tilida tovush almashuvining qaysi tovushlar ortasida sodir bo'lishi aniq belgilangan. Turk tilida tovush almashuvining muayyan tovushlar doirasida yuz berishi qat'iy emas. Shuningdek, bir tovushning variantli almashuvi, ya'ni birdan ortiq tovushga o'zgarishi kuzatiladi. Me'yoriy nutqdagi tovush o'zgarishlarining farqli xususiyatlari o'zbek va turk tillarining singarmonizm qonuniyatiga amal qilish darajasi, etnik til xususiyatlari va boshqa tillar ta'siri bilan izohlanadi. Anormal nutqdagi tovush o'zgarishlari tabiiy til belgilaridan tashqari miya shikastlanishi, artikulyatsion tizim buzilishining individual xususiyatlari bilan bog'liq.

8. O'zbek va turk bolalari nutqidagi tovush o'zgarishlari neyropsixologik rivojlanishning tabiiy va muhim bosqichi hisoblanadi. Tovushlarni o'rganish miyaning fonologik va motorik markazlarini faollashtiradi. Til va tafakkur aloqadorligi ikkiyoqlama xarakterga ega bo'lib, miya faoliyatining takomillashuvida tilning ta'sir funksiyasi mavjudligi aniqlandi. O'zbek va turk tillarida tovushlarning o'zgarishi, asosan, nevroplastika jarayonlari bilan bog'liq. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni aniqlash va ularning talaffuzini yaxshilashdagi neyrolingvistik yondashuv bolalarning aqliy rivojlanishiga va nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradi.

9. Turk tilida tovush o'zlashtirishning gender belgilar, bilingvizm, tovush pozitsiyasi, shaxsiyat, tortinchoqlik, uyatchanlik hamda irsiyat bilan bog'lanishi hodisaga neyrolingvistik jihatdan yondashilganini ko'rsatadi. Tovush xotirasi, tovush nuqsonlarining uchrash tezligi masalasi, yondosh sohalar, neyrolingvistikaning neyropsixologiya, psixofiziologiya kabi yo'nalishlarida ham izlanishlar olib borilayotganidan dalolat beradi. Bemorlarda talaffuzi qulay tovushlarni (masalan, lab tovushlarini) tiklash nazarda tutilgani ham tadqiqotlarning amaliyot bilan uyg'unligini ko'rsatadi. O'zbek tilida esa tovush o'zgarishlari fonetik hodisa sifatida o'rganilgan. Mazkur hodisa neyrolingvistik jarayon sifatida hali o'z yechimini topmagan.

10. Tovush o'zgarishlari nutq buzilishi bilan kechadigan jarayon sifatida ham o'rganilgan. Afaziyaga chalingan bemorlarning motor va sensor afaziya tiplariga xos nutqlarida assimilyatsiya, dissimilyatsiya, reduksiya, metateza, prokopa va sinkopa kabi fonetik hodisalar nutq buzilishining asosiy belgilaridan biri sifatida qaraladi. Buzilgan nutqni tiklashda tovush o'zgarishlarini alohida

hisobga olish zarurligi ta'kidlangan. Nutqni tiklash jarayonida tovushlarning to'g'ri va aniq talaffuzini qayta tiklash bemorning nutq faoliyatini yaxshilashga yordam beradi. Tovush o'zgarishlarining sabablarini o'rganish davolash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

11. Tadqiqot davomida o'tkazilgan tajriba o'zbek tilidagi bolalar anormal nutqidagi tovush o'zgarishlari jarangli va jarangsiz tovushni differensatsiyalash, bo'g'inga ajratish, matnni ekspressiv realizatsiya qilishning buzilishi, motor reallashtirish va nutqni avtomatlashtirish jarayonining barqaror emasligi, artikulyatsion motor dasturining me'yoriy emasligi najasida kuzatilishi aniqlandi. Turk bolalari nutqidagi buzilishlarda ham ushbu jarayonlar qayd etilgan. O'zbek va turk bolalaridagi nutq buzilishlarining farqli jihatlari artikulyatsion funksiyaning anormalligi, nutq uchun mas'ul miya qismlarining funksiyasi va shikastlansih darajasi bilan belgilanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ
АЛИШЕРА НАВОИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ**

МИРЗАЕВА ГУЗАЛ КОБУЛЖОНОВНА

**НЕЙРОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИЗМЕНЕНИЙ
ЗВУКОВ В УЗБЕКСКОМ И ТУРЕЦКОМ ЯЗЫКАХ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2023.2.PhD/Fil3526.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Научного совета (www.tsuull.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Холманова Зулхумор Турдиевна
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Собиров Абдулхай Шукурович
доктор филологических наук, профессор

Бобокалонов Рамазон Ражабович
доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация:

**Институт узбекского языка, литературы
и фольклора Академии наук РУз**

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2026 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 при Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (Адрес: 100700, г. Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хос Хожиба, 103. Тел.: (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44, (www.tsuul.uz); электронная почта: monitoring@navoiy-uni.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Центре информационных ресурсов Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (зарегистрирована за № _____) (Адрес: 100070, г. Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хос Хожиба, 103. Тел.: (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2026 года
(протокол реестра рассылки за № ___ «___» _____ 2026 года).

Ш.С. Сирожиддинов
Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор филологических наук, академик

К.У. Пардаев
Учёный секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор филологических наук, профессор

Н.З. Нормуродова
Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёных степеней, д.ф.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы исследования. В мировой лингвистике вопросы фонетики, а также диахронические и синхронические изменения звуков речи относятся к числу фундаментальных и в то же время актуальных исследовательских направлений. До настоящего времени фонетические явления анализировались преимущественно в рамках сравнительно-исторического и системно-структурного подходов. В данных исследованиях освещались единицы фонетического строя, их роль в реализации социальных функций языка, соотношение звука и фонемы, фонетическое членение речи, а также характеристики фонетических единиц как знаковых элементов. Формирование звуков речи рассматривалось как процесс, отражающий онтогенез языка, а также взаимосвязь языка и мышления. На сегодняшний день возникающая потребность в изучении фонетического строя на интегративной основе и рассмотрении языка в неразрывной связи с человеческим фактором обуславливает необходимость исследования характеристик и изменений звуков речи в нейролингвистическом аспекте.

Несмотря на то, что в мировой лингвистике вопросы фонетики достаточно подробно исследованы на материале отдельных языков, сравнительно-сопоставительные изыскания в этой области представлены фрагментарно. Непосредственное наблюдение за фонетическими процессами остается сложной задачей, а изучение звуковой стороны речи требует применения экспериментальных методов и интегративного подхода. Исследование развития и взаимосвязи звуков, а также изменений звуков на примере родственных языков позволяет раскрыть не только общегенетические фонетические закономерности, но и специфические черты, обусловленные своеобразием развития конкретного языка, влиянием экстра- и интралингвистических факторов. В современных условиях нейролингвистический подход к описанию звуков речи и их изменений, а также изучение фонетических процессов в зависимости от системных закономерностей и условий речевой ситуации, обогащает теорию фонетики данными о когнитивных и ментальных характеристиках языка.

В современном узбекском языкознании различные уровни языка, а также вопросы, связанные с коммуникативной и эмоционально-экспрессивной функциями языковых единиц, активно исследуются в рамках антропоцентрической парадигмы. Проводятся изыскания, посвящённые связям узбекского языка с родственными тюркскими языками, изучению общетюркских принципов развития и специфических закономерностей его эволюции. Как подчёркивает Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев: «Недавно наша страна стала членом Совета сотрудничества тюркоязычных государств. Это, в свою очередь, служит не только укреплению взаимного экономического сотрудничества, но и повышению

международного статуса тюркских языков, в том числе и узбекского языка»¹. Наличие у тюркских языков, наряду с общегенетическими признаками ярких специфических особенностей, прежде всего, находит отражение в их звуковом строе. В этом контексте исследования в нейролингвистическом аспекте приобретают особую значимость для глубокого раскрытия фонетических систем узбекского и турецкого языков, а также для выявления генетических, этнических и экстралингвистических факторов, определяющих закономерности изменений звуков.

Данное диссертационное исследование в определенной степени способствует реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года №УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», от 21 октября 2019 года №УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка», от 20 октября 2020 года №УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в нашей стране», от 28 января 2022 года №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлениях от 27 декабря 2025 года №УП-390 «О мерах по совершенствованию деятельности Академии наук Республики Узбекистан», от 20 октября 2025 года №ПП-308 «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию государственного языка», а также в нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Настоящее диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Фонетическая система тюркских языков и закономерности изменений звуков получили отражение в фундаментальных общетюркских источниках и словарях. В частности, важные положения сравнительной фонетики отмечены в трудах Махмуда Кошгари и Э.В. Севортыяна². В узбекском языкознании вопросы фонетического строя изучались в работах таких учёных, как А. Гуломов, Х. Нематов, Х. Абдурахмонов, Р. Решетов, А. Нурмонов, М. Миртожиев, А. Абдуазизов, Х. Жамолхонов, Ж. Маматов, С. Жалилов, И. Азимов, Б. Менглиев и Ж. Худойбердиев³. Фонетические единицы рассматривались

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosim”da so‘zlagan nutqi // Xalq so‘zi. – №86. 2019-yil 21-oktabr. – Toshkent, 2019. – B. 1–2.

² Севортыян Э.В. Фонетика турецкого литературного языка. – М, 1955. – 44 с.

³ Гуломов А. Ўзбек тилида ургу. – Тошкент: САГУ, 1947. – 262 б.; Решетов В. В. Узбекский язык. Введение. Фонетика. – Ташкент, 1959. – 359 с.; Абдурахмонов Х. Ўзбек фонетикаси тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1963. – №2. – Б. 5–10; Нурмонов А. Н. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –

также с использованием интегративного подхода: так, С. Отамирзаевой проанализирована взаимосвязь фонетики и медицины⁴. Механизмы речи, фонетическая система, процессы заимствования, а также психолингвистические и нейролингвистические особенности изменений звуков исследованы на материале детской речи. В частности, изменения звуков в речи узбекских детей изучены с лингвистической точки зрения Н. Сайдирахимовой и М. Курбановой, а в клиническом аспекте – Д. Мадазизовой⁵. В последние годы в узбекском языкознании наблюдается значительный рост интереса к нейролингвистике. Исследование психолингвистических характеристик речи, проведённое И. Азимовой, направлено на анализ аграмматизма в спонтанной узбекской речи и имеет особое значение для развития отечественной нейролингвистики и афазиологии⁶. Исследования Р. Сайфуллаевой и Р. Бобожонова в области нейропсихолингвистики внесли значительный вклад в становление и развитие отечественной нейропсихолингвистики⁷. Расширение круга исследований в нейролингвистической и нейропсихолингвистической парадигме открывает новые перспективы для дальнейшего развития данной научной сферы⁸.

Ряд учёных исследовал фонетические системы тюркских языков и закономерности изменений звуков⁹. Произношение звуков в речи турецких

Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 160 б.; тот же автор. Ўзбек тилининг фонетик ўзгаришларида экономия принциплари. Филол. фан. номз.... дисс. – Тошкент, 1973. – 132 б.; его же. Профессор Миразиз Миртожиев – фонетист. – Тошкент: Университет, 2007. – 96 б.; Миртожиев М. М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Университет, 1998. – 90 б.; Ньёматов Ҳ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 90 б.; Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент, 1992. – 136 б.; Жамолхонов Ҳ. А. Фонетика, фонология ва орфоэпия. Маърузалар матни. – Тошкент: ТДПУ босмаҳонаси, 1999. – 246 б.; тот же автор. Фонетика. Маърузалар матни. – Тошкент: ТДПУ босмаҳонаси, 1999. – 120 б.; Маматов Ж. Ўзбек тилида редукция. Филол. фан. номз.... дисс. – Тошкент, 2009. – 115 б.; Jalilov S. Hozirgi o'zbek adabiy tili (fonetika va fonologiya). – Nukus, 2011. – 136 б.; Azimov I., Mengliyev B. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.73(7). July, 2023. – Pp. 152–165; Xudoyberdiyev J. O'zbek adabiy tilidan singarmonizmdning chiqarilishi. Monografiya. – Toshkent, 2024. – 324 б.

⁴ Отамирзаева С. Фонетика медицина хизматида. – Тошкент, 1990. – 75 б.

⁵ Сайидирахимова Н. Болалар нутқининг фонетик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Фан, 2001. – №2. – Б. 76–77; тот же автор. Мактабгача ёшдаги ўзбек болалар нутқининг лингвистик хусусиятлари. Филол. фан. номз.... дисс. – Фарғона, 2004. – 132 б.; Лутфуллаева Д., М. Курбонова. Болалар нутқига хос дейктик бирликларнинг фонопрагматик таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – №3. – В. 22–26; Курбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 54 б.; Madazizova D.R. Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari. – Тошкент, 2018. – 374 б.

⁶ Azimova I. Afaziya – tilshunoslikning obykti sifatida. IIm sarchashmalari. – Urganch, 2013. – В. 40 - 44; тот же автор. O'zbek tilidagi agrammatik spontan nutqda otlarning ifodalanishi // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2014. – № 9. – В. 38 - 41; тот же автор. Agrammatik spontan nutqqa xos ayrim jihatlar // Lingvist V. – Toshkent, 2014. – В. 94–98.

⁷ Sayfullayeva R.R. Bobokalonov R.R. Neyropsixolingvistika: lingvistik shaxs va xarizmalı inson. Monografiya. – Buxoro: GlobeEdit, 2023. – 149 б.; Bobokalonov R.R. Nutqiy hosila, semiotik belgi, diskurs va neyropsixolingvistik holat. Monografiya. – Buxoro, 2023. – 221 б.; тот же автор. Tibbiyot va neyrolingvistika. Monografiya. – Buxoro, 2022. – 124 б.; тот же автор. Neyropsixolingvistika: xarizmalı shaxs qobiliyati. – Toshkent – Buxoro, 2024. – 224 б.; Sayfullayeva R.R., Bobokalonov R.R., Neyropsixolingvistika. Darslik. – Buxoro, 2025. – 287 б.

⁸ “Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va neyropsixolingvistika muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Farg‘ona: FarDU, 2024. – 488 б.

⁹ Bergstrasser G. Türk Fonetigi. Çev. M. Şükrü Akkaya. – İstanbul, 1936. – 29 s.; Özden R. Tarihsel Bakımdan

детей изучалось как с клинической, так и с лингвистической точек зрения¹⁰. В тюркологии проведено множество исследований в сфере нейролингвистики и афазиологии, в частности, изменений звуков в речи пациентов с афазией проанализированы в монографических трудах¹¹. Кроме того, фонетическая система турецкого языка и изменений звуков исследованы в сравнительном аспекте. Однако до настоящего времени специфика изменений звуков в

